

Qudratilla Qobilqoriyev

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrası katta o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: qobilqoriyev93@gmail.com
ORCID: 0009-0006-7290-270X*

**DOYRA CHOLG'USIDA RITMIK TAFAKKUR
VA IJROCHILIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH**

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada doyra cholg'usida ijrochilik mahorati va ritmik tafakkurni shakllantirish hamda bosqichma-bosqich rivojlantirish masalalari yoritilgan. Doyra usullarini o'zlashtirishda eshitib takrorlash, bo'laklarga ajratish, ijro jarayonida sekin tempdan tez tempga o'tish, metronom bilan nazorat, tovush hosil qilish va qo'l harakatlari ketma-ketligini nazorat qilish, improvizatsion mashqlarning samaradorligi asoslangan. Shuningdek, an'anaviy ijrochilik tajribasini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali sozandaning ijrochilikdagi texnik aniqligi va individual mahoratini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.*

***Kalit so'zlar:** doyra, ritmik tafakkur, ijrochilik mahorati, zarb, improvizatsiya, eshitish xotirasi, musiqa pedagogikasi.*

**РАЗВИТИЕ РИТМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И
ИСПОЛНИТЕЛЬСКОГО МАСТЕРСТВА НА ИНСТРУМЕНТЕ ДОЙРА**

***Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы развития исполнительского мастерства и ритмического мышления при игре на дойре и описывается поэтапный подход к освоению этого инструмента. Особое внимание уделяется эффективности таких методов, как обучение на слух и многократное повторение, разучивание ритмических рисунков по частям, постепенный переход от медленного темпа к быстрому, использование метронома, контроль за звукоизвлечением и движениями рук, а также применение импровизационных упражнений. Кроме того, продемонстрированы возможности развития технической точности и индивидуального мастерства музыканта посредством интеграции*

традиционного исполнительского опыта с современными педагогическими технологиями.

Ключевые слова: дойра, ритмическое мышление, исполнительское мастерство, бит, импровизация, слуховая память, музыкальная педагогика.

DEVELOPING RHYTHMIC THINKING AND PERFORMANCE SKILLS ON THE DOYRA INSTRUMENT

Abstract. *This article examines the development of performance skills and rhythmic thinking on the doyra, outlining a step-by-step approach to mastering the instrument. It highlights the effectiveness of specific techniques such as learning by ear and repetition, segmenting patterns, transitioning from slow to fast tempos, using a metronome, monitoring sound production and hand movements, and employing improvisational exercises. Furthermore, opportunities for developing a musician's technical precision and individual mastery through the integration of traditional performance experience with modern pedagogical technologies are demonstrated.*

Keywords: *doyra, rhythmic thinking, performance skills, beat, improvisation, auditory memory, music pedagogy.*

Doyra uzoq yillardan buyon o'zbek milliy musiqa madaniyatida o'z o'rniga ega bo'lgan asosiy cholg'ulardan biri sifatida ijrochilik amaliyotida qo'llanib kelmoqda. Doyra ijrochiligida zarblarning aniqligi, usullarning barqarorligi, cholg'uda hosil qilinadigan tovushlarning xilma-xilligi va ijrochining musiqani his etishi muhim omillardan hisoblanadi.

Doyra cholg'usining ijrochilik imkoniyatlari xalq musiqa amaliyoti, maqom an'analari, raqs musiqasi, ansambl va orkestr ijrochiligi hamda zamonaviy professional sahna faoliyatida namoyon bo'ladi. Shu sababli doyrani o'rgatish jarayonida texnik ko'nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda uning milliy ijrochilik tabiatini saqlash va ongli ravishda o'zlashtirish masalasi ham muhimdir.

Doyra ijrochiligida ritmik tafakkur tushunchasi sozandaning zarb va pauzalarni oldindan tasavvur qilishi, urg'u va davomiyliklar o'rtasidagi munosabatni

anglab, uni aniq harakat orqali ifodalashi qobiliyati sifatida qaraladi. Doyra ijrochisi uchun bu qobiliyat ayniqsa muhim.

Manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, urma zarbli cholg'ularda ritmik tafakkurni rivojlantirish eshitish xotirasi, ijodiy faoliyat va ansambl ijrochiligi madaniyatining shakllanishiga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Professional doyra ijrochisini tayyorlash jarayonida faqat texnik mashqlarni qo'llash yetarli emas. Ijrochi zarbni mexanik ravishda takrorlashdan ritmik tuzilmani anglash, usulning ichki mantig'ini his etish, uning badiiy funksiyasini tushunish va zarur vaziyatda ijodiy o'zgartirish bosqichiga ko'tarilishi lozim. Demak, ritmik tafakkur va ijrochilik mahorati bir-birini to'ldiruvchi ikki asosiy kompetensiya sifatida qaralishi kerak.

“Ritm musiqiy jarayonning vaqt bo'yicha tashkil etilishidir. Biroq, doyra ijrochiligi nuqtayi nazaridan ritmni faqat o'lchov va davomiyliklar bilan cheklash metodik jihatdan tor yondashuv bo'ladi. Doyrada bir xil vaqt oralig'ida berilgan zarblarning tovush kuchi, tembri, qo'lning harakat yo'nalishi va ijrodagi urg'u xususiyati turlicha badiiy natija beradi. Shu sababli ritm vaqt, harakat, tovush va ma'no birligidan tashkil topgan tizim sifatida qaralishi lozim” [5, 325-b].

Mazkur ilmiy xulosadan kelib chiqib, o'quvchiga usulni faqat zarblar ketma-ketligi sifatida emas, balki musiqiy shaklni boshqaruvchi strukturaviy model sifatida tushuntirish maqsadga muvofiq. Bunda har bir zarbning funksiyasi, takrorlanish nuqtasi, kuchli va kuchsiz pozitsiyasi, pauza bilan munosabati hamda kuy frazasiga ta'siri tahlil qilinadi. Ritmik tafakkur shakllanmagan ijroda texnik harakatlarni mavjud bo'lsa-da, musiqiy mantiq buzilishi mumkin. Aksincha, rivojlangan ritmik tafakkur ijrochiga murakkab usullarni ham ichki pulsni yo'qotmagan holda bajarish, tempni boshqarish, ansambl bilan sinxronlashish va improvizatsiyada barqaror tayanchni saqlash imkonini beradi.

Doyra ijrochiligida ritmik aniqlik bevosita tovush hosil qilish texnikasiga bog'liq. Barmoq va kaftning cholg'u terisiga tegish nuqtasi, zarbning chuqurligi, qaytish tezligi, qo'lning bo'shashgan yoki tarang holati tovushning davomiyligi va

tembrini o'zgartiradi. Shu sababli texnik mashqlar ritmik mashqlardan ajratilmasligi kerak. Ritmik tafakkurning yuqori darajasi faqat zarbni o'z vaqtida urish bilan emas, balki qaysi zarbni ajratish va qaysi zarbni ongli ravishda yumshatish kerakligini bilish bilan belgilanadi. Aksent ijroning ichki arxitekturasini ko'rsatadi. Kuchli aksent ritmik modelning tayanch nuqtasini belgilasa, nisbatan kuchsiz zarblar harakatning uzluksizligini ta'minlaydi.

Professional ijrochilikda ritmik tafakkurning murakkab darajalaridan biri poliritmik fikrlashdir. Bu yerda bir vaqtning o'zida turli ritmik qatlamlarning mavjudligi yoki bir ritmik model ichida turli guruhlanishlarning sezilishi nazarda tutiladi. Doyra ijrochisi bunday holatda asosiy pulsni yo'qotmasdan, ikkilamchi ritmik figurani aniq ifodalashi kerak.

Ritmik tafakkurni shakllantirishda poliritmiyani o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Poliritmiyani o'rgatish jarayoni oddiydan murakkabga tamoyili asosida olib borilishi lozim. Avval o'quvchi asosiy pulsni oyoq yoki ichki sanash orqali saqlab turadi. Keyin qo'l bilan oddiy ritmik figura bajariladi. Uchinchi bosqichda asosiy puls va figura o'rtasidagi qarama-qarshilik kuchaytiriladi. To'rtinchi bosqichda esa yordamchi sanash olib tashlanib, ichki pulsga tayanish talab qilinadi. Bu metod ritmik mustaqillikni rivojlantiradi.

“O'zbek doyra ijrochilik maktabining kuchli jihatlaridan biri bilim va ko'nikmalarning bevosita ijro jarayonida, ustozdan shogirdga amaliy namoyish va takrorlash orqali o'tishidir. Bu usul ritmik mayda farqlarni, aksentning tabiiyligini, tovush hosil qilishni va usulning badiiy xarakterini og'zaki tavsifdan ko'ra aniqroq yetkazishi mumkin” [6, 112-b].

Biroq, zamonaviy ta'lim sharoitida an'anaviy tajribani audio va video yozuvlar, raqamli metronomlar, sekinlashtirilgan namunalar, interaktiv ritm dasturlari va masofaviy nazorat vositalari bilan boyitish mumkin. Metodik tadqiqotlarda oliy musiqa ta'limida doyra ritmik shakllarini o'qitishda nazariy, amaliy va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlangan.

Doyra ijrochiligida improvizatsiya ritmik tafakkurning amaliy sinovidir. Tayyor usulni aniq takrorlash xotira va texnikani ko'rsatsa, improvizatsiya ijrochining usulni ichki jihatdan o'zlashtirgan yoki o'zlashtirmaganini namoyon qiladi. Agar ijrochi asosiy pulsni saqlagan holda ritmik variant yaratishi, savol-javob shaklida zarblar tuzishi yoki musiqiy frazaga mos qisqa bezak kiritishi mumkin bo'lsa, bu uning ritmik modeli ichki tizim sifatida anglaganidan dalolat beradi.

"Improvizatsiyani o'rgatishda "cheklangan ijod" metodi samarali. Masalan, o'quvchiga faqat ma'lum miqdordagi zarblardan foydalanish, usulning asosiy tayanchini o'zgartirmaslik, har bir ikki taktli iborada bitta yangi variant yaratish kabi vazifalar beriladi. Keyinchalik cheklovlar bosqichma-bosqich kamaytiriladi. Bu jarayon ijrochida musiqiy xotira, tezkor qaror qabul qilish, ritmik bashorat va estetik tanlov qobiliyatlarini rivojlantiradi" [4, 4-b].

Ansambl ijrosida ritmik tafakkur individual mahoratdan jamoaviy musiqiy mas'uliyat darajasiga ko'tariladi. Doyrachi o'z zarbini boshqa cholg'ularning melodik va ritmik harakati bilan muvofiqlashtirishi kerak. Bu jarayonda faqat o'z partiyasini eshitish emas, umumiy musiqiy teksturani tinglash muhim. Ansambl mashqlarida o'quvchilarga navbatma-navbat yetakchi va jo'rnavoz vazifalarini berish foydalidir. Yetakchi vazifasida o'quvchi temp va fraza yo'nalishini boshqaradi; jo'rnavoz vazifasida esa boshqalarning ritmik harakatini sezib, o'z ijrosini unga moslashtiradi. Bu mashq ritmik moslashuvchanlikni rivojlantiradi. Quyidagi mashqlar tizimi professional mashg'ulotlarni rejalashtirishda foydalanish uchun tavsiya etiladi:

"Ichki puls" mashqi: 2-3 daqiqa davomida bir xil tempni ushlab, faqat asosiy zarblarni ijro etish; keyin ayrim zarblarni olib tashlab, pulsni ichkarida davom ettirish.

"Aksent almashinuvi" mashqi: bir xil ritmik formulada urg'uni navbatma-navbat turli pozitsiyalarga ko'chirish.

"Pauza" mashqi: usulning ayrim zarblarini ataylab jim qoldirish va ritmik harakatni yo'qotmaslik. "Sekindan tezga" mashqi: murakkab formula avval juda

sekin, keyin o'rta va nihoyat ijro tempiga yaqin tezlikda bajariladi. "Metronomsiz qayta tiklash" mashqi: metronom bilan o'zlashtirilgan ritmik modelni 30–60 soniyadan so'ng metronomsiz takrorlash.

"Savol-javob" improvizatsiyasi: pedagog ikki taktli ritmik savol beradi, o'quvchi ikki taktli ritmik javob yaratadi.

"Ansaml tayanchi" mashqi: bir o'quvchi asosiy pulsni saqlaydi, ikkinchisi bezakli ritmik figurani bajaradi; keyin rollar almashtiriladi. "Audio tahlil" mashqi: ijro yozib olinadi va temp, aksent, pauza, tovush sifati hamda ortiqcha harakatlar alohida tahlil qilinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, doyra ijrochiligida ritmik tafakkur va ijrochilik mahoratini bir-biridan ajratib rivojlantirish mumkin emas. Texnik mashq ritmik maqsadga ega bo'lmasa, u mexanik takrorlashga aylanib qolishi mumkin; aksincha, ritmik tafakkur yetarli bo'lsa-yu, zarb texnikasi sust bo'lsa, ichki musiqiy tasavvurni tashqi ijroga to'liq aylantirish qiyinlashadi.

Shu bois metodik jarayonni samarali tashkil etish o'zida uch bosqichni birlashtirishi lozim: birinchi bosqich texnik qatlam (zarb, qo'l holati, koordinatsiya); ikkinchi bosqich kognitiv qatlam (eshitish, xotira, ichki puls, ritmik tahlil); uchinchi bosqich esa badiiy qatlam (dinamika, tembr, fraza, improvizatsiya va sahna ifodasi). Ijrochi professional darajadagi ritmik tafakkurga ega bo'lishi uchun mazkur uch bosqich bir-biri bilan o'zaro uyg'unlashishi lozim.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda doyra ijrochiligini o'qitish, ritmik murakkablikni o'zlashtirish, dinamika va ifoda vositalarini rivojlantirish bo'yicha alohida metodik yo'nalishlarning paydo bo'layotgani ham ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Doyra cholg'usida ritmik tafakkurni rivojlantirish professional ijrochilikning fundamental shartlaridan biridir. Ritmik tafakkur ijrochining zarbni aniq bajarish qobiliyatidan kengroq tushuncha bo'lib, u ichki pulsni sezish, usulning strukturaviy mantig'ini anglash, aksent va pazani badiiy maqsadda qo'llash, murakkab ritmik qatlamlarni boshqarish hamda improvizatsiyada barqarorlikni saqlashni qamrab oladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, doyra ijrochisini tayyorlashda bosqichma-bosqich metodika eng maqbul yo'nalishlardan biridir: avval bazaviy puls va oddiy zarblar, keyin artikulyatsiya va aksent, undan so'ng murakkab usullar, sinkopa va poliritmiya, nihoyat improvizatsiya va ansambl ijrosi o'zlashtirilishi lozim.

An'anaviy ustoz-shogird tajribasi zamonaviy audio, video nazorat, metronom, interaktiv ritm mashqlari va ijro yozuvlarini tahlil qilish kabi vositalar bilan boyitilsa, o'quvchining mustaqil ishlash va o'z-o'zini baholash kompetensiyasi sezilarli darajada kuchayadi.

Eng muhimi, ritmni mexanik sanash emas, uni musiqiy fikr sifatida his qilish tamoyili doira ta'limining markaziga qo'yilishi kerak. Shundagina texnik mahorat badiiy tafakkur bilan uyg'unlashib, milliy ijrochilik an'alarini saqlagan holda zamonaviy professional talablarga javob beradigan ijrochilarni tayyorlash imkoniyati kengayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islomov D. *Doyra san'ati darg'alari. Monografiya.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 152 b.
2. Qobilqoriyev Q. *Doyra cholg'usining o'zbek milliy musiqa madaniyatidagi o'rni. Magistrlik dissertatsiyasi.* – Toshkent, 2020. – 90 b.
3. Qobilqoriyev Q. *San'atga baxshida umr // O'zDSMI xabarlari.* – Toshkent, 2020. – B. 148.
4. Qobilqoriyev Q. *Doyra cholg'usida ijrochilik malakalarini rivojlantirish metodikasi // Academic Research in Modern Science,* 2024. DOI: 10.5281/zenodo.10885018. – B. 185.
5. Rustamov I. *Doyra ijrosida dinamika va ifoda vositalarini rivojlantirishning samarali usullari // Jamiyat va innovatsiyalar. Society and Innovations,* 2025, Vol. 6, Issue 5/S, 324–329. DOI: 10.47689/2181-1415-vol6-iss5/S-pp324-329. – B. 350.
6. Samadov R. *Shashmaqom cholg'u yo'llarida doyra usullari va urma zarbli cholg'ularning badiiy xususiyatlari // Journal of National Culture.* – 2026. Vol. 2, No. 2. – B. 212.